

DAVLAT ORGANLARI VA TASHKIOTLARIGA YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH FAOLIYATINI TARTIBGA SOLUVCHI QONUNCHILIK TIZIMINING SHAKLLANISHI

Kudratov Inomjon Sattarkulovich

**Adliya vazirligi, Yuridik xizmatlar faoliyatini
muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i**
<https://doi.org/10.5281/zenodo.16606262>

Annotatsiya. ushbu maqolada davlat tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik tizimining shakllanishi, rivojlanishi hamda mazkur sohani yanada takomillashtirishga oid taklif va mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: yuridik xizmat, yuridik xizmat ko'rsatish markazlari, huquqiy ekspertiza, "E-huquqshunos" elektron tizimi, sun'iy idrok.

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiqlashtirish, huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazish, sud-huquqiy munosabatlarda tashkilot manfaatlarini huquqiy himoya qilishda yuridik xizmat muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuridik xizmat orqali davlat boshqaruvi tizimida qonuniylik, huquqiy aniqlik va institusional javobgarlik ta'minlanadi, bu esa o'z navbatida jamiyatda huquq ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xususan, yuridik xizmat – davlat organi va tashkiloti faoliyatini huquqiy ta'minlash maqsadida qonunchilikda belgilangan me'yor va mezonlarga muvofiq majburiy tartibda tashkil etiladigan yoki joriy qilinadigan mustaqil tarkibiy tuzilma yoxud lavozim hisoblanadi [1].

Bugungi kunda mamlakatimizda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini, ayniqsa o'rta va quyi bo'g'inda huquqiy jihatdan ta'minlash hamda ularga sifatli va professional yuridik xizmat ko'rsatishga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-yanvardagi PF-314-son Farmonida Adliya vazirligiga yuridik xizmat xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazishni tashkil qilish vazifasi yuklatilgan bo'lib, mazkur davrdan boshlab, adliya organlari tomonidan davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat faoliyati muvofiqlashtirib kelinmoqda [2].

Yuridik xizmatlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik tizimi rivojlanish jihatidan to'rt bosqichni bosib o'tdi.

1. O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruv organlari va korxonalaridagi yuridik xizmat to'g'risida nizom.

Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 2-martdagi 118-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruv organlari va korxonalaridagi yuridik xizmat to'g'risida nizom yuridik xizmatlar faoliyatini tartibga soluvchi dastlabki normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Mazkur Nizomda yuridik xizmat xodimi lavozimlarini egallash tartibi, yuridik xizmatlarning vazifalari, yuridik xizmatlarning huquqi va mas'uliyati belgilangan.

Shuningdek, yuqorida keltirilgan Nizomda yuridik xizmat xodimlari uchun (*yosh mutaxassislar va homilador ayollardan tashqari*) 5 yilda bir marta Adliya vazirligiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining adliya boshqarmalarida qayta tayyorlash va attestatsiyadan o'tish majburiyat sifatida

belgilangan bo'lib, ushu jarayon davlat organlari va tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshirilgan.

Attestatsiyadan o'ta olmagan yuridik xizmat xodimlariga 6 oydan so'ng qayta tayyorlash va attestatsiyadan o'tishga ruxsat berilishi nazarda tutilgan.

Biroq, yuridik xizmat xodimlarini lavozimiga tayinlash va ozod etishda adliya organlari bilan kelishish, stajirovkadan o'tkazish hamda martaba-daraja berish Nizomda ko'rsatilmagan.

2. Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining yuridik xizmati to'g'risida nizom.

Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 24-avgustdagi 182-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruv organlari va korxonalaridagi yuridik xizmat to'g'risida nizom tasdiqlangan.

Ushbu Nizom maqsadlari uchun davlat organlari va tashkilotlari deganda, davlat organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari tushuniladi.

Mazkur Nizom bilan mahalliy davlat hokimiyati organlari yuridik xizmat xodimlari adliya organlari bilan kelishgan holda lavozimiga tayinlanishi va ozod etilishi, yuridik xizmat xodimi lavozimiga birinchi marta tayinlangan shaxslar adliya organlarida stajirovka o'tash tartibi belgilangan.

Shu bilan birga, Nizomda yuridik xizmat xodimlarining davlat organining huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash faoliyatida bevosita qatnashish, normativ-huquqiy hujjatlarning tizimlashtirilgan hisobini belgilangan talablarga muvofiq yuritish, davlat organi xodimlarining huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirishda, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuni va mohiyatini ularga yetkazishda qatnashish, davlat organi va uning tizimiga kiradigan bo'linmalar, ularning mansabdor shaxslari faoliyatida qonuniylikni ta'minlashga ko'maklashish, davlat organining shartnomaviy-huquqiy va talabnoma-da'vo ishlarini yuritishda qatnashish, xudlarda va boshqa idoralarda davlat organining mulkiy va boshqa manfaatlarini himoya qilish bo'yicha 31 ta funksional vazifasi belgilangan.

Yuridik xizmat xodimi lavozimidan ozod etishda adliya organlari bilan kelishish hamda yuridik xizmat xodimlariga martaba-daraja berish masalasi Nizomda ko'rsatilmagan.

Bundan tashqari, yuridik xizmatlarni tashkil etishning tartibi, ularning shtat birliklarini belgilash me'yor va mezonlarining mavjud emasligi turli davlat organlari va tashkilotlarida yuridik xizmatlarning tashkiliy shtat tuzilmasini oqilona belgilashni ta'minlashga imkon bermagan.

3. Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining yuridik xizmati to'g'risida nizom.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi PQ-2733-son qarori qabul qilinishi yuridik xizmatlar faoliyati yangi bosqichga ko'tardi.

Mazkur qaror bilan tasdiqlangan Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati to'g'risida nizom davlat rahbari tomonidan qabul qilingan yuridik xizmatlar faoliyatini tartibga soluvchi dastlabki normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi.

Shuningdek, yuridik xizmatning mavjud shtat birliklarini qisqartirishga va ularni davlat organi va tashkilotining boshqa tarkibiy tuzilmalariga qayta taqsimlashga yo'l qo'yilmaydi, yuridik xizmat xodimlari lavozimiga adliya organlari bilan kelishgan holda tayinlanadi va ozod etiladi.

Bundan tashqari, yuridik xizmat xodimlarining davlat organi va tashkilotining huquqni qo'llash faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta'minlashni tashkil etish, davlat organi va tashkiloti tomonidan ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar loyihalarining qonunchilikka muvofiqligi ustidan nazoratni olib borish, davlat organi va tashkilotining qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etish, qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflarni tayyorlash masalalarida ularning tuzilmalari ishini muvofiqlashtirish, davlat organlari va tashkiloti xodimlarining huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirish, shartnomaviy-huquqiy va talabnoma-da'vo ishlarini yuritish, davlat organi va tashkilotining mulkiy va boshqa manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini ta'minlash bo'yicha 40 ta funksional vazifasi belgilangan.

Mazkur Nizom bilan yuridik xizmat xodimlari uchun adliya organlari xodimlariga belgilangan martaba darajalarini berish, ko'p yillik xizmat uchun ustamalarni to'lash, sudgacha va sudlarda davlat organi va tashkiloti foydasiga hal qilingan nizolar bo'yicha mukofotlash tartibi joriy etilgan.

Ma'lumot o'rnida yuqorida keltirilgan qarorga muvofiq yuridik xizmat xodimlari har chorakda sudgacha va sud tartibida davlat organi va tashkiloti foydasiga hal qilingan nizolar yuzasidan undirilgan summaning 5 foizi, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 50 barobaridan ko'p bo'lmagan miqdorda mukofotlanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan Nizomda yuridik xizmat xodimlarining davlat idoralariga kelib tushayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni bilan tanishish, xizmatda foydalanish uchun birinchi navbatda olish, rahbariyat topshirig'iga ko'ra yoki tegishli tuzilma rahbarining roziligi bilan ularning xodimlarini normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar loyihalarini tayyorlash uchun, huquqiy ishlarni amalga oshirish bilan bog'liq boshqa tadbirlarga jalb qilish kabi 9 ta huquq belgilangan.

Bundan tashqari, yuridik xizmat xodimlari davlat organi va tashkilotida, shuningdek uning tizimiga kiradigan tuzilmalarda qonun buzilishi holatlari aniqlanganligi to'g'risida zudlik bilan to'g'ridan-to'g'ri yuqori turuvchi organga, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berishi, belgilangan tartibda va muddatlarda malaka oshirishi va attestatsiyadan o'tishi shartligi qayd etilgan.

4. Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari to'g'risida nizom.

Tashkilotlarga yuridik xizmat ko'rsatish sohasidagi keyingi rivoji ularga markazlashgan tartibda huquqiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq.

Xususan, Namangan shahri, Qarshi va Marhamat tumanlarida sinov tariqasida jami 23 ta tashkilotning hududiy bo'linmalariga yuridik xizmatlar ko'rsatuvchi markazlar faoliyati Adliya vazirligi tizimida yo'lga qo'yilib, o'zining ijobiy samarasini ko'rsatdi. Sohaga tajribali kadrlarning jalb qilinishidagi kamchiliklar hujjatlar loyihalarining iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy ekspertizadan o'tkazilishi sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Natijada qabul qilinayotgan qarorlar va boshqa hujjatlar ko'p hollarda joylarda jismoniy va yuridik shaxslarning e'tirozlariga sabab bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-son "2017 – 2021- yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra davlat organlari va tashkilotlariga markazlashgan yuridik xizmat ko'rsatish tizimini joriy qilish maqsadida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyundagi PQ-5168-son qaroriga asosan 2021-yil 1-oktabrdan 12 ta davlat organlari va tashkilotlarining quyi bo'limlariga hududiy adliya organlari huzuridagi Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan huquqiy xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yildi.

Markazlarning quyidagi asosiy beshta yo'nalishi belgilab olindi:

davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini huquqiy jihatdan ta'minlash;

davlat tashkilotlariga sifatli va malakali yuridik yordam ko'rsatish;

davlat tashkilotlari xodimlarining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish;

davlat tashkilotlarining mulkiy hamda boshqa huquqlari va qonuniy manfaatlarini o'z vaqtida, har tomonlama va samarali himoya qilinishini ta'minlash;

davlat organlari va tashkilotlari tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning loyihalaridagi korrupsiyaviy omillarni bartaraf etishga ko'maklashish.

Markazlar xodimlariga sud prosessida yuridik xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlarning vakili sifatida qatnashish huquqi berildi.

Yuqoridagi qaror bilan birinchi marotaba yuridik xizmat xodimlari uchun yuridik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq barcha ma'lumot va jarayonlarni to'liq elektron ravishda yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va amalga oshirish imkonini beruvchi "E-huquqshunos" elektron tizimi ishga tushirildi.

"E-huquqshunos" elektron tizimi quyidagi imkoniyatlarga ega:

elektron tizimga ichki buyruq, shartnomalar va boshqa yuridik tusdagi hujjatlarning namunalarini kiritish hamda mavjud hujjatlar loyihalarini namunalaridan erkin foydalanish;

elektron tizimdan foydalanuvchi tashkilotlar tomonidan shaxsiy kabinetga kirish, har qanday hujjat loyihasi va unga tahliliy materiallarni tayyorlash, qayta ishlash va xulosa olish uchun Markazlarga yuborish;

Markazlarning mas'ul xodimlari tomonidan, tegishli xulosa tayyorlash, hujjatlarni elektron raqamli imzo bilan tasdiqlagan holda, elektron tizimga biriktirish hamda o'zaro hujjat almashish;

elektron tizim orqali tashkilotlar tomonidan Markazlardan ijobiy xulosa olinganidan so'ng takrorlanmaydigan maxsus raqam berish va elektron tarzda qabul qilish hamda ushbu hujjatlarni avtomatik tarzda izchil ketma-ketlikda raqamlash;

davlat tashkiloti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflarni tizimga biriktirish, ularni tahrir qilish, takliflarni elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash hamda yuborish;

targ'ibot tadbirlari bilan bog'liq materiallarni elektron tizim orqali almashish;

davlat tashkilotlariga talabnoma, sudlarga ariza yoki da'vo arizalarini kiritish uchun ularning loyihalarini tayyorlash, tahrir qilish va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlab kiritish;

xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlarga nisbatan o'tkaziladigan tekshirishlarda masofaviy tarzda ishtirok etish hamda ularga huquqiy maslahatlar berish;

Markazlar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslardan kelgan murojaatlarni o'rganib chiqish va ularga asoslantirilgan javoblar yuborishda ishtirok etish.

Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari to'g'risida nizomda Markazlarga yuridik xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlarning faoliyatini huquqiy jihatdan ta'minlash, yuridik xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlarga sifatli va malakali yuridik yordam ko'rsatish, yuridik xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini

oshirish, yuridik xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlarning mulkiy hamda boshqa huquq va qonuniy manfaatlari o'z vaqtida, har tomonlama va samarali himoya qilinishini ta'minlash bo'yicha 49 ta funksiyasi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi PQ-173-son qarori bilan Markazlar qamrovi yanada kengaytirilib, maktablar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va poliklinikalarga yuridik xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yildi.

Hozirda Markazlar tomonidan 18 turdagi tashkilotlarining 21 mingdan tashkilotlarga xizmat ko'rsatilmoqda. O'tgan davr mobaynida 22 mln.dan ortiq yuridik tusdagi hujjat loyihalari yuridik ekspertizadan o'tkazildi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda davlat idoralari faoliyatini huquqiy jihatdan ta'minlash hamda ularga sifatli va professional yuridik xizmat ko'rsatishga qaratilgan islohotlar natijasida Markazlar davlat organlari va tashkilotlaridan mustaqil holda tashkil etildi hamda amaldagi maoshlardan uch barobar ko'p ish haqi bilan malakali huquqshunoslarni sohaga jalb qilish imkoniyati paydo bo'ldi.

Bu esa o'z navbatida, eng olis hududlarda joylashgan tumanlarda ham huquqshunoslar taqchilligiga barham berib, respublika miqyosida yagona huquqni qo'llash amaliyotini yuzaga keltirdi.

Shu bilan birga, Adliya vazirligi tomonidan sohaga innovatsiyalarni keng joriy etilayotganligi va bu orqali yuridik tusdagi hujjat loyihalarini ishlab chiqish jarayoni avtomatlashtirilganligi hamda "E-huquqshunos" elektron tizimida sun'iy idrok texnologiyasi asosida ishlovchi "Yurist AI" chat-botini ishga tushirilganligi muhim yangiliklardan biri bo'ldi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi PQ-2733-son "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-3098964>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-yanvardagi PF-314-son "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-148097>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PF-5997-son "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-4820060>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-son "2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-5260791>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyundagi PQ-5168-son "Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5482934>

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi PQ-173-son "Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari faoliyatini yanada kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5914991>
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yilning 17-sentabridagi 561-son "Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish markazlari faoliyatini eksperiment tariqasida tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5000814>

INNOVATIVE
ACADEMY